



XORAZM VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rniда, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	Ro'yxatdan o'tgan korxonalar	22 368	119,9 %
	Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar	20 353	115,2 %
	Yangi tashkil etilgan korxonalar (2020-yilda)	3 137	89,4 %

Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vegar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyat



Oilaviy korxona



Unitar korxona



Xususiy korxona




Aksiyadorlik jamiyat




Boshqa korxonalar

*mas'uliyati cheklangan jamiyat
birlik*



*xususiy korxona
birlik*




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- avgust holatiga ko'ra)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyat:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-iyul oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyul oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(2020-yil yanvar-iyul oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020- yilning yanvar-iyul oylarida 3 137 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 553 ta, oilaviy korxonalar – 938 ta, xususiy korxonalar – 538 ta, muassasalar – 26 ta va boshqalar – 82 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra 3 498 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 239 taga yoki 54,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 166 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 995 taga yoki 45,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 938 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24 taga yoki 2,5 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra 9 748 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 865 taga yoki 23,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 8 847 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 400 taga yoki 18,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 553 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 83 taga yoki 5,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	29	36	51	119	155
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1	2	2	15	22
Sanoat	21	25	31	58	61
Qurilish	2	2	4	12	22
Savdo	2	4	8	22	30
Tashish va saqlash			1	5	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar		3	2	3	8
Axborot va aloqa				1	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish				1	4
Boshqa turlar	3		3	2	6

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	5 134	5 379	5 826	7 447	8 847
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	593	586	653	858	1379
Sanoat	828	955	1053	1339	1407
Qurilish	845	887	931	1080	1255
Savdo	1491	1653	1779	2382	2721
Tashish va saqlash	369	376	421	517	561
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	164	171	177	220	236
Axborot va aloqa	76	85	89	88	99
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	54	63	82	128	158
Boshqa turlar	714	603	641	835	1031

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	589	866	2 171	3 166
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	76	100	314	423
Sanoat	159	233	590	836
Qurilish	10	15	20	30
Savdo	118	178	525	918
Tashish va saqlash	3	4	12	17
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	141	221	534	662
Axborot va aloqa	8	14	21	21
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4	7	16	37
Boshqa turlar	70	94	139	222


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



**Tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni**
(2020- yil 1-avgust holatiga ko‘ra, birlikda)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining asosiy qismi Urganch shahri (4 536 ta), Urganch tumani (2 224 ta), Xiva shahri (1 740 ta), Xonqa tumani (1 632 ta) va Qo‘shko‘pir tumani (1 419 ta) hissasiga to‘g‘ri keladi.


**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Xorazm viloyati	155	98	57
Urganch sh.	46	32	14
Xiva sh.	16	10	6
tumanlar:			
Bog'ot	8	7	1
Gurlan	5	4	1
Qo'shko'pir	6	4	2
Urganch	22	8	14
Hazorasp	2	1	1
Tuproqqal'a	6	2	4
Xonqa	8	5	3
Xiva	11	5	6
Shovot	10	8	2
Yangiariq	6	4	2
Yangibozor	9	8	1

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Urganch shahrida 46 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 29,7 %), Urganch tumani 22 ta (14,2 %), Xiva shahri 16 tani (10,3 %), Xiva tumani 11 ta (7,1 %), Shovot tumani 10 ta (6,5 %), Yangibozor tumani 9 ta (5,8 %) hamda Bog'ot tumani 8 tani (5,2 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Urganch shahri (22,9 %), Urganch tumani (10,8 %), Xiva shahri (8,7 %), Xiva tumani (8,1 %), Xonqa tumani (7,6 %), Qo'shko'pir tumani (6,8 %), Gurlan tumani (6,5 %), Yangiariq tumani (5,7 %), Bog'ot tumani (5,5 %), Hazorasp tumani (5,3 %), Shovot tumani (5,2 %), Yangibozor tumani (4,7 %) va Tuproqqal'a tumani (2,2 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-iyul oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Urganch shahrida (15,1 %), Qo'shko'pir tumani (10,2 %), Urganch tumani (9,2 %), Gurlan tumani (9,0 %), Yangibozor tumani (8,0 %), Bog'ot tumani (7,7 %), Xiva shahri (7,6 %), Xonqa tumani (7,5 %), Xiva tumani (6,8 %), Yangiariq tumani (5,8 %), Shovot tumani (5,4 %), Hazorasp tumani (4,4 %) va Tuproqqal'a tumani (3,3 %) ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2020- yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning tumanlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Urganch shahrida (21,9 %), Urganch tumani (10,2 %), Xiva shahri (9,4 %), Xiva tumani (8,6 %), Hazorasp tumani (7,8 %), Yangiariq tumani (7,4 %), Gurlan tumani (6,8 %), Xonqa tumani (6,3 %), Qo'shko'pir tumani (6,2 %), Bog'ot tumani (5,5 %), Shovot tumani (4,2 %), Tuproqqal'a tumani (3,4 %) va Yangibozor tumani (2,3 %) hissasiga tegishli.

Tumanlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqt-i-vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275-sон qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main navigation menu includes links for 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUROJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. A search bar at the top right contains the text 'Qidirish' (Search). The central content area features a large button labeled 'Kodni yangilash uchun rasminga bosing' (Click to update your password) with a placeholder 'Kodni kiriting' (Enter the code). To the left, there's a sidebar titled 'RASMIY STATISTIKA' with various statistical reports like 'Elon qilish taqvimi', 'Metama'lumotlar', and 'Makroko'rsatkichlar'. On the right, a sidebar titled 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' lists items such as 'Ahollini ro'yxtatga olish-2022', 'Harakatlar strategiyasi', and 'Press-relizlar'.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsnинг (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.:62 224-65-11**